

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA KORXONA VA TASHKILOTLARNING INNOVATSION FAOLIYATI

Mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar nafaqat korxonalarda ishlatiladigan texnika va texnologik jarayonlarni yangilashni, balki boshqaruv va hisobini tashkil etishda innovatsion yondashuvni talab etadi. Shu nuqtai nazardan korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni baholashning amaliyotda qo‘llaniladigan ayrim jihatlarini tadqiq etish katta ahamiyatga ega.

2017 yilda 40 ta korxonalar va tashkilotlar birinchi marta innovatsion mahsulot, ishlar, xizmatlarni o‘zlashtirgan bo‘lib, ular tomonidan 26510,0 mln. so‘mlik innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarildi.


2017 yilda o‘z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar va tashkilotlar.

1-jadval

| | Jami | Ulardan: | | |
|--|-----------|---|---|--|
| | | 2017 yilda birinchi marta o‘zlashtirgan | 2015-2016 yillarda birinchi marta o‘zlashtirgan | 2015-2017 yillarda takomillashtirilgan |
| Korxonalar va tashkilotlar soni | 69 | 40 | 34 | 2 |
| Innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi (QQS va aksizsiz), mln.so‘m | 3923446,9 | 27593,8 | 3895402,4 | 450,8 |
| Bajarilgan va sotilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi (QQS va aksizsiz), mln.so‘m | 3903201,1 | 26510,0 | 3876240,4 | 450,8 |

2017 yilda o‘z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar va tashkilotlar soni. (1-rasm)


1-rasm



2017 yilda bajarilgan va sotilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi

(QQS va aksizsiz), mln.so'm. (2-rasm)

2-rasm



2017 yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida joriy qilingan innovatsiyalarning asosiy qismi texnologik innovatsiyalar bo'lib, innovatsiya joriy qilgan tashkilotlar soni 22 ta, joriy qilingan innovatsiyalar 29 tani tashkil qildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi
statistika boshqarmasi
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi
Tel.: (61) 222-79-83
(71) 230-82-04